

FOYDALANUVCHI KELISHUVI VA MAXFIYLIK SIYOSATI

1. Umumiy qoidalar va rozilik

1.1. Ushbu Kelishuv ELSU MCHJning www.elsu.uz saytida ko'rsatilgan xizmatlar (keyingi o'rinlarda — «Servis») dan foydalanish shartlari va foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash tartibini tartibga soladi.

1.2. Shaxsiy ma'lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga tegishli bo'lgan va uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan, elektron yoki boshqa tashuvchida qayd etilgan ma'lumot.

1.3. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash — shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, ulardan foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish bo'yicha amalga oshirilgan bir yoki bir nechta harakatlar yig'indisi.

1.4. Servisdan foydalanish, shu jumladan har qanday ma'lumotlarni kiritish yoki ro'yxatdan o'tish, Foydalanuvchining ushbu Kelishuv shartlariga so'zsiz roziligini anglatadi. Ma'lumotlar (transport vositasining davlat raqami, ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasining seriyasi va nomeri, passport(ID karta) seriyasi va nomeri, tug'ilgan kun,) uchun rozi bo'lish elektron shaklda tasdiqlanadi.

1.5. Ushbu Kelishuv shartlariga rozi bo'lmagan taqdirda, Foydalanuvchi Servisdan foydalanishni zudlik bilan to'xtatishi shart.

2. Kelishuv predmeti va qayta ishlash maqsadlari

2.1. Servis Foydalanuvchiga sug'urta polisini rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan quyidagi asosiy imkoniyatlarni va ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlarini taqdim etadi: Sug'urta polislari narxini hisoblash va rasmiylashtirish. Foydalanuvchini identifikatsiya qilish. Foydalanuvchiga Servisning shaxsiylashtirilgan ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish. Qayta aloqa o'rnatish (xabarnomalar, so'rovlar). Hisob qaydnomasini yaratish (agar Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tishga rozi bo'lsa). Sug'urta va yangiliklar yuborish kabi qo'shimcha xizmatlarni taqdim etish.

2.2. Ma'lumotlar saqlash muddati: Servisdan foydalanishda ishlatilgan ma'lumotlar sessiya tugagandan keyin yo'q qilinadi. Ro'yxatdan o'tish ma'lumotlari 1 yil saqlanadi yoki rozi bo'lish bekor qilingunga qadar. Sug'urta polisi haqidagi ma'lumotlar 1 yil yoki rozi bo'lish bekor qilingunga qadar saqlanadi.

3. Qayta ishlash prinsiplari va ma'lumotlar tarkibi

3.1. Vaqtinchalik qayta ishlash prinsiplari (Hisob-kitoblar): Uzoq muddatli saqlashni talab qilmaydigan xizmatlar (masalan, polis narxini hisoblash) uchun ma'lumotlarni qayta ishlash vaqtinchalik (o'tkinchi) prinsipga asoslanadi. Bunday vaqtinchalik hisob-kitoblar uchun kiritilgan ma'lumotlar faqat so'rov vaqtida (sessiya davomida) qayta ishlanadi va sessiya tugagandan so'ng Servis bazalarida saqlanmaydi. Kiritilgan ma'lumotlar arxivlanmaydi va foydalanuvchilar bazasi yaratilmaydi.

3.2. Uzoq muddatli qayta ishlash prinsiplari (Xarid/Ro'yxatdan o'tishda): Tarix va shaxsiylashtirishni talab qiladigan xizmatlarni olish uchun Servisda ro'yxatdan o'tish bir yil davomida ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilikni anglatadi.

3.3. Qayta ishlanadigan ma'lumotlar tarkibi: Tanlangan xizmatga (hisob-kitob yoki polisni rasmiylashtirish) qarab, qayta ishlash quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin: F.I.SH., pasport seriyasi va raqami, tug'ilgan kun yoki JSHSHIR. Kontakt ma'lumotlari: telefon, elektron pochta. Avtomobil to'g'risidagi ma'lumotlar: transport vositasining davlat raqami, ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasining seriyasi va nomeri.

4. Ma'lumotlarni uzatish va himoya qilish

4.1. Ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga uzatish uchinchi shaxslarga, reklama tarmoqlariga uzatilmaydi.

4.2. Uzatishga quyidagi hollarda ruxsat etiladi: Ushbu kelishuvda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan maqsadlarda, ya'ni sug'urtani rasmiylashtirish uchun hamkor sug'urta kompaniyalarga, Servisda ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlardan foydalanilganda ushbu xizmatni ko'rsatishga jalb qilingan hamkor kompaniyalarga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlariga.

4.2.1. Barcha ma'lumotlar bazalari O'zbekistonda joylashgan.

4.3. Himoya choralari: "ELSU" MCHJ ma'lumotlarni ruxsatsiz yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, shuningdek, uchinchi shaxslarning boshqa noqonuniy harakatlaridan himoya qilish uchun zarur tashkiliy va texnik choralarni qabul qiladi, xususan, ma'lumotlarni uzatish kanallarini himoya qilish uchun texnik choralarni qo'llaydi.

5. Javobgarlik va Foydalanuvchi huquqlari

5.1. Servis ma'lumotlarni saqlamasligi mumkinligi sababli (vaqtinchalik prinsipiga ko'ra), veb-sahifa yopilgandan keyin rasmiylashtirilgan hujjat (sug'urta polisi) Foydalanuvchi Servis tomonidan shakllantirilgan hujjatni mustaqil ravishda saqlab qo'yishi shart.

5.2. Operator shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish natijasida Foydalanuvchi ko'rgan haqiqiy zarar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi, bunda haqiqiy zarar hujjatli dalillangan bo'lishi shart.

5.3. Foydalanuvchi quyidagi xuquqlarga ega: O'z shaxsiy ma'lumotlariga kirish va ularni tuzatish, qayta ishlashga roziligini istalgan vaqtda bekor qilish, ma'lumotlarni qayta ishlashni cheklash yoki ularni o'chirishni talab qilish. Huquqlarni amalga oshirish uchun kontakt: elsugurta@gmail.com 5.4. Nizolar muzokaralar orqali hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, Toshkent shahar sudida ko'rib chiqiladi.

6. Maxfiylik siyosatiga o'zgartirish kiritish

6.1. "ELSU" MCHJ ushbu Maxfiylik siyosatiga o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi va o'zgartirishlar rasmiy veb-saytda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.